

**ANTONIO MACHADO VA ZULFIYA MO‘MINOVA IJODIDA “YER”
KONSEPTINING LINGVOKULTUROLIK XUSUSIYATLARI**

Saodat Fikrat qizi KAMOLIDDINOVA

o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Saodatka8888@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ispan va o‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalari – Antonio Machado, Zulfiya Mo‘minova ijodida “Tierra – Yer” konseptining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinib, uning mazmunidagi universal va milliy-madaniy komponentlar ilk bor ispan va o‘zbek tillari olam manzarasida semantik-kognitiv jihatdan tadqiq etiladi.

Tayanch so‘zlar: yer, tierra, leksema, konsept, kognitiv

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА
«ЗЕМЛЯ» В ТВОРЧЕСТВЕ АНТОНИО МАЧАДО И ЗУЛЬФИИ
МУМИНОВОЙ**

Саодат Фикрат кизи КАМОЛИДДИНОВА

преподавательница

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье анализируются особенности выражения концепта «Tierra – Yer» в творчестве выдающихся представителей испанской и узбекской литературы — Антонио Мачадо и Зульфии Муминовой. Впервые в семантико-когнитивном аспекте исследованы универсальные и национально-культурные компоненты данного концепта в рамках языковой картины мира испанского и узбекского языков.

Ключевые слова: земля, tierra, лексема, концепт, когнитивный.

XX asrda boshqa sohalar qatori adabiyotda ham qator o‘zgarish va yangilanishlar ko‘zga tashlandi. Xususan, bu davrda she’riyatda his-tuyg‘u va g‘oya she’riyati to‘qnash keldi. Bu kurashda his-tuyg‘uga asoslangan mumtoz adabiy an’analar: vazn, shakl va obrazlar tizimida qarashlar o‘zgarib bordi. Bu o‘zgarishlarga jadid adabiyotining ta’siri kuchli bo‘ldi. XX asrning birinchi choragi o‘zbek she’riyati uchun chinakamiga yangilanish bosqichi bo‘ldi. She’rga estetik hodisa sifatida qarash kuchaydi.

20-yillarda jadid adabiyoti yaxlit adabiyot sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Jadidlar o'z g'oyalarini adabiyot orqali xalqqa singdirishda davom etdilar. Fitrat o'zining "Aruz haqida" asari bilan shu davrgacha hukmron an'anaviy aruzni rad etdi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi she'riyatni ham milliyalashtirishga chaqirdi. She'rlarini barmoqda yozishni boshladi. Shuningdek, boshqa shoirlarni ham bunga da'vat etdi. Bu harakatlarni olib borish hech oson bo'lmadi.

Adabiyot o'z mohiyati bilan umuminsoniyatga daxldorlik qilsa-da, u o'zini milliy shaklda namoyon qiladi. O'zida millat fitratiy holatini aks ettiradi. "Adabiyot yashasa, millat yashaydi" jumlasining bugun aforizmga aylangani boisi ham shudir. Zamonlar otadi, tafakkur evriladi, ehtimol, she'riyatda surat o'zgaradi. Bu haqiqatlarga qaramay, adabiyot, she'riyatning darajasi – milliy ruh va mahoratga ko'ra baholanadi. Texnika-texnologiyalar asrida globallashuv sabab, xalqlarning madaniy qarashlari, san'ati o'zaro yaqinlashib, yaxlitlashib barmoqda. Adabiyot – ijtimoiy hodisa. Shunday ekan, u davr bilan hamnafas va hamohang. E'tiborlisi, u har qanday makon va zamonda ham o'z qahramonlarini izlab topadi. Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati kundan-kunga o'sib, yangilanib barmoqda.

Bahodir Karim fikricha, "Shoirlik qismatiga bardosh berish, uning shon-shuhratiga munosib yashash, eng muhimi, shoir o'z millatining vijdoni, yuzi, so'zi va ko'zi ekanini har doim esida tutishi, albatta, osonmas. Shoir – iste'dod egasi, shoir so'z va tafakkur odami, shoir iste'dodli dardmand inson, shoir – el-yurt quvonchiga sherik odam..." [8]. Haqiqatan, shoirlik bu qismatdir. Shu qismat sohibasi bo'lmish Zulfiya Mo'minova ijodi mavzu ko'lami va topilmalarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada tahlilga tortilgan Yer konsepti Z.Mo'minova ijodida o'ziga xos namoyon bo'ladi. Shoir muhabbat haqida yozadimi, inson kechinmalari to'g'risidami uning ko'z ongida Vatan gavdalanadi. Shu qatorda boshqa adiblarda uchramaydigan MOMO YER tashbehi, ayniqsa, shoir ijodida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Momo yer, ona tuproq

*Ko 'klam isi taralmoqda havodan,
Havodanmi yoki mayin sabodan,
Sendek aziz topilmayman dunyodan,
Momo yer, ona tuproq.*

*Yer yuziga atru havo sochildi,
Yuraklardan go 'zal navo sochildi,
Oshiq dilga ishqdan davo sochildi,
Momo yer, ona tuproq.*

*Olma bog 'lar, novvotu bol sendadir,
Qut – baraka, baxtu iqbol sendadir,
Bahor chog 'i, gulgun jamol sendadir,
Momo yer, ona tuproq.*

Shoiraning ushbu she'rida yer – ona yer emas, balki “momo yer” shaklida ifodalanadi, tuproqqa nisbatan esa “ona” leksemasi qo'llanadi.

Birinchi bandda “yer” bahor hidi (*“Ko 'klam isi”*) orqali hissiy tajribada tasvirlangan. Qayta tiklanadigan tabiatdan kelib chiqadigan bu hid uyg'onish, unumdorlikni va Yer yuzidagi hayotning yangilanish davrini anglatadi. Tabiat shu qadar qamrab olinganki, so'zlovchi hid to'g'ridan-to'g'ri havodan keladimi yoki mayin shabada (*“mayin sabo”*)danmi, deb hayron bo'ladi. Yer bilan bu hissiy aloqa tabiiy muhitga yaqinlik tuyg'usini yaratadi.

“Sendek aziz topilmayman dunyodan” iborasi yerning so'zlovchiga o'z qadri-qimmatini bo'yicha beqiyos ekanidan dalolat beradi. Bu misra yerning onalik rolidagi o'rnini almashtirib bo'lmasligi, so'zlovchining chuqur minnatdorlik va ehtiromi aks etganligi haqidagi fikrni mustahkamlaydi. *“Momo yer”, “ona tuproq”* atamalarining qo'llanishi hayotning himoyachisi va manbai sifatida ko'rilgan yerga ana shu qaramlik va hurmatni ta'kidlaydi.

Keyingi to'rtlikda Yer o'z farzandlariga in'om etayotgan ne'mat va to'kinliklarni tarannum etishda davom etishi tasvirlangan: *“Yer yuziga atru havo sochildi”* iborasi Yer yuzining go'zallik va zavq-shavq muhitida cho'milayotganidan dalolat beradi. *“Yuraklardan go 'zal navo sochildi”* deganda,

nafaqat yoqimli jismoniy muhit, balki zaminning ruhiy-ma'naviy ta'siri ham tasvirlangan. Demak, yer insonlarni yuksak tuyg'ularga, ijodkorlikka ilhomlantirishga qodir.

Uchinchi baytda yerning moddiy ne'matlari aniqroq ifodalangan. "*Olma bog'lar, novvotu bo'l sendadir*" yer to'yimli, mazali va hayot uchun zarur bo'lgan hamma narsani yetkazib beruvchi degan fikrni mustahkamlaydi. Bog'lar va asal unumdorlik va farovonlik timsoli bo'lib, ular o'z farzandlarini oziqlantirib, ularga g'amxo'rlik qiluvchi saxovatli ona degan g'oyani mustahkamlaydi.

"*Qut – baraka, baxtu iqbol sendadir*" misrasida she'rda yer omon qolish uchun zarur bo'lgan hamma narsani ta'minlabgina qolmay, balki hayotda ne'mat va muvaffaqiyatlar manbai ekani aytiladi. Bu inson farovonligini yerning sog'lig'i bilan bevosita bog'laydi: yer gullab-yashnasa, odamlar ham farovon yashashini ifodalaydi.

Zulfiya Mo'minovaning keyingi she'rida inson hayotining yer bilan chuqur bog'langanligi ifodalanadi hamda sog'inch, mansublik va insoniy holat mavzularini o'rganishda tabiat metaforasini qo'llaydi:

*Qattiq yerdan chiqqan gul,
Toshlar bag'rin yorgan gul,
Shirin xayol surgan gul,
Yerda yotmas, yerda yotmas,
Yerda yotsa kimlar olmas?
Qiz bo'yniga tizilding,
Noxos ipdan uzilding,
Kimni kutib ezilding,
Qizil munchoq yerda yotmas,*

Yerda yotsa kimlar olmas?... Ushbu she'rda yerga qattqlik ramzi sifatida qaralib, uning bag'rini yorgan "gul"ga e'tibor qaratiladi.

Butun she'r davomida yerdan o'sib chiqayotgan gullarning go'zalligi bilan insoniyat boshidan kechirgan dard o'rtasidagi ziddiyat tilga olinadi. Masalan, "kattik yer" (qattiq tuproq)dan paydo bo'lgan "gul" (gul) timsoli qiyinchiliklar

orasida go‘zallik izlash uchun kurashni aks ettiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yer qattiq bo‘lsada, unumdor va go‘zal narsaga hayot berishga qodir.

Ikkinchi misradagi “qiz”ning tilga olinishi ayol tajribasini yer bilan bog‘laydi. Bu hayot va yer o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglatib, azob-uqubat va kutish (“kimni kutib ezilding”da bo‘lgani kabi) bu makonda mavjudlikning bir qismi ekanligini ko‘rsatadi. “Qizil munchoq” (qizil marjon) timsolida yer bilan bog‘lanib qolgan bo‘lsada, jismoniy o‘limdan nariga o‘tuvchi hayot unsurlari borligi g‘oyasini ta’kidlaydi.

Oxirgi bayt insonning umid bilan yashash istagiga qaratilgan. “Orzu bilan yashar odam” (inson orzusi bilan yashaydi) yer va orzular o‘rtasida bog‘liqlikni o‘rnatib, sog‘inch haqiqatdan oshib ketish yo‘li ekanligini ko‘rsatadi. Oq marvarid (oq marvard) poklik va intilish ramzi bo‘lib, orzular insonni yerdagi sharoitlardan ham baland ko‘tarishini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, she‘r go‘zallik, izzat va umid tasvirlari orqali yer va inson tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Yer tegishlilik va kurashni ifodalovchi markaziy ramzga aylanadi, orzular va intilishlar esa odamlarga o‘z mavjudligida ma‘no va maqsad topishga imkon beradi. Shunday qilib, yer bilan aloqa o‘zlikni izlash va o‘zidan kattaroq narsaga erishish istagining aksidir.

Antonio Machado asarlarida “TIERRA” konseptining shakllanishi.

Antonio Machado mashhur ispan yozuvchisi, shoiri, dramaturgi, esseist, mutafakkir, ispan adabiyotining “98-yil avlodlari” davrining yorqin namoyandasidir.

Ispan tilidagi modernizm poetikasi tarafdorlaridan biri sifatida debyut qilgan Machado xalq qo‘shiqlari an‘analari bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ko‘pchilik zamondoshlaridan ajralib turadi. O‘zining “Kastilya dalalari” to‘plamlaridagi “Maqol va qo‘shiqlar”i va “Yangi qo‘shiqlar”, “Alvargonsales o‘lkasi” romansi uning zamon unsurlarini o‘ta kuchli his qilishini yaqqol ko‘rsatadi.

Uning “Desnuda esta la tiyerra” (Yalang‘och yer) nomli she‘rida shoirning ruhiy holati va his-tuyg‘ulari aks etgan. Muallif tushkun holatda o‘z o‘tmishini tahlil qiladi va uning hozirgi yomon ahvolini ifodalovchi va bu noxushlikdan

qutqaruvchi biror najot topa olmaydi. Ammo, she'ring davomida umid uchquni ko'rinadi. She'rda g'amginlik, qayg'u va baxt, umidsizlik va umid o'rtasidagi kurash tasvirlanadi:

*Desnuda está la tiyerra,
y el alma aúlla al horizonte pálido
como loba famélica. ¿Qué buscas,
poeta, en el ocaso?*

*Amargo caminar, porque el camino
pesa en el corazón! ¡El viento helado,
y la noche que llega, y la amargura
de la distancia!... En el camino blanco
algunos yertos árboles negrean;
en los montes lejanos
hay oro y sangre... El sol murió... ¿Qué buscas,
poeta, en el ocaso?*

Shoir tabiatni ifodalash, tasvirlash orqali u o'zining ichki holatini ko'rsatgan. She'ring umumiy mazmuni xotiralar tufayli g'amginlik, tushkunlik, qayg'u yoki hozirgi tushkunlik holatini tushuntirishdan iboratdir. Machadoning umidsizlik holati qayg'uli monoton va achchiq manzarada aks ettirilgan.

Bundan tashqari, she'rda bir qancha lisoniy birliklar ishlatilgan: “*loba famélica*” – (och urg'ochi bo'ri) shoirning qalbida tug'yon urayotgan savollarning javobini qidirishga bo'lgan ehtiyojini ifodalasa, “*el sol murio*” metaforasi so'nayotgan umid ma'nosini ifodalaydi.

“*Tiyerra*” (*yer*) konsepti shoir ruhi va tasvirlanayotgan manzarani tasvirlash vaqtida aynan makon ma'nosini ifodalashi va g'am va xarob tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Antoni Machadoning yana bir “*Sobre la tiyerra amarga*” (Achchiq yer ustida) she'ridir. Bunda Antonio Machado hayot azobini, yillar davomida o'zini his qiladigan iztirob chekkalarini ochib beradi. Bizning ko'z o'ngimizda sog'inch, qo'msash tuyg'ulari va yo'qlik dunyosi ochiladi:

*Sobre la tiyerra amarga,
caminos tiyene el sueño
laberínticos, sendas tortuosas,
parques en flor y en sombra y en silencio;*

*criptas hondas, escalas sobre estrellas;
retablos de esperanzas y recuerdos.
Figurillas que pasan y sonríen
—juguetes melancólicos de viyejo—;
imágenes sombrías, a la vuelta florida del sendero,
y quimeras rosadas
que hacen camino... lejos...*

Satrlarga berkingan Sirni o'rganish kechagidek bugun ham she'riyat mavzusidir. Olisdagi, o'zida noma'lum bo'lganlar haqida fikr yuritar ekan, shoir uni "gulli illuziyalar" (quimeras rosadas) sifatida ko'radi. Voqelikni o'zgartiruvchi, chuqur shakllangan she'riy so'zlar orqali tushni ifodalaydi. Tushda har doim ikki tomonlama harakat bor – parvoz va yiqilish. Uyqu orqali biz o'lim va tirilishning bu ikki tomonlama harakatini sezamiz.

Tiyerra konsepti *tiyerra amarga* – *achchiq yer* asosiy makon, joy konseptlari sifatida qaraladi.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept muammosi til bilan bog'liq hodisalarini o'rganishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Konseptlar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha umumiy fikr yoki yo'nalish, yohud nuqtayi nazar yo'qligiga qaramay, konseptga oid qoidalar tilshunoslikdagi konsept muammosiga nisbatan umumiy qabul qilinadi va izohlanadi.

O'rganilgan ma'lumotlar va keltirilgan fikrlarga asoslanib konseptni insonning ongi va idroki bilan bog'liq bo'lgan, tilda qisman obyektlashtiriladigan, tarkibiga nafaqat tavsiflovchi va izohlovchi, balki hissiy-irodaviy, obrazli-empirik xususiyatlarni ham kiritadigan hodisaga aytishimiz mumkin.

Har bir tilda yaratilgan lugʻat oʻsha xalqqa tegishli milliy-madaniy meros boʻlib, unda odamlar oʻz aksini topadi. Masalan, oʻzbekcha-ispancha lugʻatlarda insonning tevarak-atrofdagi tabiat bilan munosabatiga oid soʻz va iboralar katta oʻrinni egallaydi.

Keltirilgan izohlar va materiallar, sheʼrlar tomonidan qaralganda, konsept aniq qolipga solinmagan, madaniy ruh bilan yogʻrilgan idrok mahsuli deb ayta olamiz. *Yer* konseptining tuzilish jihatdan shakllanishini ikki nuqtada: tushunchaning mazmunini ramziy-majoziy, muhimlilik va mazmun majmui tarafidan va tushunchaning mavhum elementlar va subyektiv munosabat sifatida koʻrib chiqildi.

Ijtimoiy, madaniy-tarixiy omillarni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va yerning boshqa xususiyatlarini koʻrib chiqib, ularning barchasi ispan va oʻzbek tillarida soʻzlashuvchilar ongida *Yer* tushunchasining shakllanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan degan xulosaga keldik. Lingvokulturologiya va sheʼriyat nuqtayi nazaridan *Yer* tushunchasi kengayadi va ramziy maʼnoda Vatan yoki biror makonga tenglashtiriladi. *Yer* nafaqat geografik muhit, balki xalqlarning madaniyati, oʻziga xosligi va millat ruhini oʻzida mujassam etgan mohiyat sifatida qabul qilinadi.

Koʻrib chiqilgan misollarda, umuman, sheʼriyatda *Yer* mansublik timsoliga, hissiy panohga, inson kechinmalari oʻzaro bogʻlangan bosqichga aylanadi. Shoirilar maʼlum zamin va tabiatga murojaat qilib, inson va atrof-muhit oʻrtasida yaqin aloqani yaratadi, ular oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni taʼkidlaydi. Til va madaniyat oʻrtasidagi bu muloqot bizga *Yerni* nafaqat manba sifatida, balki ulugʻlanishi va himoya qilinishiga loyiq meros sifatida koʻrish imkonini beradi.

Ispan va oʻzbek adabiyotida uchraydigan, til va sheʼriyatda ifodalanuvchi *Yer* tushunchasi millatning mentaliteti, madaniyati va tarixdan shakllangan yodgorlik sifatida qoʻllanilishini koʻrdik. Ispan sheʼriyatida *Yer* konsepti baʼzan tuygʻular tugʻyoni va qaygʻu, ayriliq va qaygʻu makoniga aylanadi: Kastiliya tekisligi, Pireney togʻlari ispanlarga tegishli boʻshliqdir. Antonio Machado kabi mualliflar tegishlilik va vaqt mavzularini, ruhning shakli, uning mansublik

g‘oyasini, shuningdek, vaqt kutib turmasligini ifodalash uchun *Yerni* ramziy timsol qilib tasvirlaydilar.

Har ikkala xalqning ma’daniyati, adabiy an’analar bir oz qarama-qarshi bo‘lsa ham, umumiy bir qarash kuzatiladi. She’riy asarlarda *Yer* o‘quvchini o‘zlik, xotira va tegishlilik nuqtayi nazaridan anglanilishiga chaqiradilar, bu uning boshlanish va jamiyatning so‘nggi nuqtasi ekanligi haqidagi so‘zlari misolida ko‘rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxronova D., Kamoliddinova S. Olamning konseptual manzarasida “YER-TIERRA” leksemasining kognitiv semantik tahlili //Oriental renaissance, 2024. – №01.
2. Kamoliddinova S. // “Yer-tierra” komponentli frazeologik birliklarning konseptual semantik xususiyatlari // O‘zMU xabarлари, 2025. – № 1/3
3. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари ни излаб //Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
4. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи //Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. – № 4. – Б. 33-37.
5. Тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. –
6. Гофуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2012.
7. Bakhronova, D. & Dadaboyev, K. (2021). The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades, 6(30), e210871. <https://doi.org/10.46652/rgn.v6i30.871>
8. Bahodir KARIM. ADABIY FIKR JAVHARI yoxud Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga bir nazar <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.html>
9. www.lex.uz

10. www.adabiyot.uz
11. www.maqollar.uz
12. www.imlo.uz
13. www.wordreference.com
14. www.ziyouz.com
15. <https://www.poetasandaluces.com/poema/150/>